

Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna

Andijon davlat universiteti,

Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

saydur010473@mail.com

Tel: +998934259311

Abstract: *The article describes the rules, methods and means of linguistic analysis of a literary text. This article is of great importance for students to master the rules, methods and ways of linguistic analysis of a literary text.*

Key words: *linguistic analysis, literary analysis, language transformation (experiment), complex analysis.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Аннотация: *В статье описаны правила, методы и способы лингвистического анализа художественного текста. Данная статья имеет большое значение для усвоения учащимися правил, методов и способов лингвистического анализа художественного текста.*

Ключевые слова: *лингвистический анализ, литературоведческий анализ, языковая трансформация (эксперимент), комплексный анализ.*

BADIIY MATNNING LINGVISTIK TAHLILI

Аннотация: *Maqolada badiiy matnning lingvistik tahlil tartibi qoidalari, usul va yo'llari yoritilgan. O'quvchilarning badiiy matnning lingvistik tahlil tartibi qoidalari, usul va yo'llarini puxta egallashda mazkur mavzu katta ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *lingvistik tahlil, adabiy tahlil, lingvistik ta'bdil (eksperiment), kompleks tahlil*

Kirish. Maktabda filologik fanlarni yuqori saviyada o'rganishda badiiy matnning lingvistik tahlili muhim o'rin tutadi. Shuning uchun o'qituvchidan lingvistik tahlil tartibi qoidalari, usul va yo'llarini puxta egallash talab etiladi.

Avvalo, badiiy matnning lingvistik tahlilini adabiy tahlildan farqlash lozim. To'g'ri, har ikki turdagi tahlil ham badiiy matn asosida amalga oshiriladi. Lekin har qaysi tahlil turi maqsad va vazifasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Adabiy tahlilda badiiy asar g'oyasi, uning adabiy-badiiy jihatlari sharhlansa, lingvistik tahlilda esa matnni tashkil etgan nutqiy hodisalarning xususiyatlari, o'zaro aloqasi, ularning badiiy asar mazmunini shakllantirishdagi xizmati sharhlanadi va baholanadi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Adabiy tahlilda badiiy asar tilidagi fonetik hodisa va qonuniyatlarning matndagi xizmati alohida bir sistema sifatida, lugʻaviy semantik birliklar (masalan, etiketlar, dialektal, tarixiy, kasb-hunar leksikasi va frazeologik birliklar) boshqa bir sistema sifatida sharhlanadi. Lingvistik tahlilda esa morfologik va sintaktik birliklarning oʻziga xos oʻrni aniqlanadi va ularning fonetik, lugʻaviy-semantik sistema bilan munosabati izohlanadi.

Badiiy matnning lingvistik tahlili aniq qonun-qoidalar asosida amalga oshiriladi: bu qonun-qoidalar tilshunoslikning umumiy qoidalariga asoslanadi va aniq usullarga, ular esa maʼlum yoʻnalishlarga suyanadi. Lekin mazkur qoidalar muayyan badiiy matnga tatbiq etilganda xususiy tomonlari bilan sharhlanadi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Hozir umumfilologik jarayonda badiiy matn lingvistik tahlilining quyidagi qoida (prinsip)lari eʼtirof etiladi:

Tarixiylik prinsipi. Yaʼni matndagi til birliklariga tarixiylik jihatidan yondashiladi. Har bir til hodisasi asar yaratilgan davr nuqtai nazaridan baholanadi.

Alohidalik prinsipi. Har bir til fakti muayyan matnda alohida-alohida izohlanadi va shu asosda sistemalashtiriladi. Masalan, P.Qodirovning “Qorakoʻzlar” romanidagi oykoʻllik chorvadorlar nutqida yuzdan ortiq chorvachilik terminlarining qoʻllanilganligi aniqlangan. Bu leksemalar chorvadorlar real hayotini aks ettirishga, asar tilining umumxalq tili sifatida shakllanishiga xizmat qilgan.

Ilmiylik prinsipi. Matndagi har bir til hodisasiga ilmiy yondashiladi. Masalan, Gulxaniyning “Zarbulmasal”idagi qush va joy atamaları yoki Toshbaqa va Chayon munozarasi ilmiy, yaʼni oʻsha davr ijtimoiy hayoti illatlari bilan bogʻlab tahlil etilsagina kutilgan natijaga erishiladi.

Shakl va mazmun birligi prinsipi. Til hodisalariga shakl va mazmun birligi nuqtai nazaridan yondashiladi. Masalan, “Baxtlar vodiysi” matni tahlilida “Koʻm-koʻk, koʻm-koʻk, koʻm-koʻk...” refreniga xos sintaktik-semantik xususiyat asar mazmuni va qurilishi uchun tayanch nuqtadir.

Matnning janr xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Har bir asarga xos badiiy til uning janr xususiyatiga qarab farqlanadi. Aslida badiiy asar janriga xos shakl uning sintaktik qurilishi bilan belgilanadi.

Badiiy matn lingvistik tahlilining turlicha yoʻl va usullari mavjud:

Tilshunoslikning umumiy qoidalariga amal qilish usuli. Bunda til hodisalariga xos tasviriylik, mutanosiblik, qiyoslash kabi filologik faktorlar aniqlanadi. Bu jarayonda boshqa fanlarga oid til faktlariga murojaat etiladi. Masalan, Alisher Navoiy haqida turli janrlarda yozilgan badiiy-tarixiy asarlarda ulugʻ shoir portreti ustida soʻz yuritilganda ushbu usulga amal qilinib, portret tasviriga oid til faktlariga xos oʻrinlar aniqlanadi va umumlashtiriladi. Natijada, Navoiy portreti boʻyoqlar vositasida emas, balki til materiallari vositasida shakllanadi.

Lingvistik ilmiy mushohada usuli. Badiiy matnni lingvistik tahlil etishda til birliklari ustida tilshunoslik jihatidan ilmiy mushohada yuritiladi. Matn materiallari adabiy til normalari nuqtai nazaridan baholanadi. Sheva elementlari, kasb-hunar leksikasi esa adabiy norma bilan qiyoslanadi. Masalan, Nechun bezovtasen, barvaqt turibsen, Malik yanglig‘ o‘zing tanho turibsen?

Lingvistik ta'bdil (eksperiment) usuli. Bu usul asosida jumlaning qayta tuzib ko‘rish yo‘li bilan konkret bir badiiy matnda yozuvchi til materiallaridan qay darajada foydalanganligi aniqlanadi. Masalan, Novdalarni bezab g‘unchalar satrini Novdalarin bezab g‘unchalar tarzida o‘zgartirish mumkin. Bunda misra yanada kuchliroq jaranglaydi. Lekin masalaning mantiqiy-nazariy tomoni bunga yo‘l qo‘ymaydi. Negaki, muallif matnida g‘unchalar novdalarga tegishli. G‘unchalar gullasagina novdalarni bezaydi. O‘zgartirilganda esa shu mantiq buziladi. Demak, ta'bdil natijasida muallif matni lingvistik jihatdan to‘g‘ri tuzilganligi aniqlanadi.

Asar matni variantlarini qiyoslash usuli. Bu usul orqali ma'lum asar matni boshqa variantlari bilan qiyoslanadi va lingvistik farqlarning mohiyati adib nuqtai nazari va asar g‘oyasiga bog‘lab izohlanadi. Masalan, “Ko‘kan” poemasiining ilk varianti matni bilan asosiy matnga xos til xususiyatlari qiyoslanganda, farq yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yozuvchining til haqidagi mulohazalarini hisobga olish usuli. Yozuvchi asarining matni lingvistik tahlil etilganda, uning tilshunoslik bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlari hisobga olinmog‘i lozim. Masalan, Abdulla Qodiriy, Oybek, A.Qahhor, Pirmuqol Qodirovning xalq tili badiiy til muammolariga bag‘ishlangan ilmiy ishlaridan xabardor bo‘lmay turib, o‘sha asarlar matnini lingvistik tahlil etish maqbul emas.

Ilmiy-nazariy lug‘atlardan foydalanish usuli. Lingvistik tahlil ishida bu usulning amaliy ahamiyati katta. Masalan, klassik asarlar matnini “Navoiy asarlari lug‘ati”siz tahlil etish mushkul. Yoki hozirgi davr adabiyoti matnlarida uchraydigan ayrim til birliklarini “O‘zbek tili izohli lug‘ati” va boshqa xususiy fanlarga doir ilmiy lug‘atlarsiz izohlash qiyin.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Badiiy matn lingvistik tahlilini tashkil etish jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi:

talabalarning matnni tahlil etishga ruhiy jihatdan tayyorligiga erishish;

tanlangan matnning ijtimoiy-sotsial va badiiy jihatiga e'tiborni qaratish, bunda oddiydan murakkabga tomon borish;

matnni umumiy lingvistik va badiiy-tarixiy jihatdan izohlash;

asarning ijtimoiy-tarixiy mazmuni haqida ma'lumot berish;

asar kompozitsiyasini hamda matn qurilishini izohlash.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Bunda fonetik, leksik-semantik, dialektologik, frazeologik, grammatik xususiyatlarga alohida ahamiyat beriladi. Ish so‘ngida bular barchasi bir lingvistik sistema sifatida umumlashtiriladi. Shunday umumlashtirish badiiy matnning lingvistik

tahlilida kompleks tahlil deb yuritiladi. Bunday tahlil asar bobini yoki butun bir asar bo'yicha o'tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar*. – T.:“Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008. – 164 b.
2. Durdon, S. (2021). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA SIFAT SO 'Z TURKUMINI O 'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 159-163.
3. Сайфутдинова, Д. П. (2023). МИНИАТЮРНЫЕ РАБОТЫ НА ЗАНЯТИЯХ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ. *Scientific progress*, 4(1), 74-78.
4. Сайфутдинова, Д.П., и Мирзаджонов, LRQ (2023). СУТЬ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Научный прогресс*, 4 (1), 50-55.
5. Сайфутдинова, Д. (2022). ОБУЧАТЬ ПРОИЗНОШЕНИЮ КОНСОНАНТНЫХ СОЧЕТАНИЙ. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 823-829.
6. JURAEVA, N., & SAYFUTDINOVA, D. Authors Speech AS Well AS Religious Words And Phrases In Muhammad Alis Historical Novels. *JournalNX*, 6(10), 106-108.
7. Nabieva, D., & Nurmanova, D. (2022). Manifestation Of The Generality-Specificity Dialectic In The Vowel System Of The Uzbek Language. *Journal of Positive School Psychology*, 6(8), 1765-1771.
8. Nurmanova, D. A. (2019). ТЕКСТ, КАК УНИВЕРСАЛЬНАЯ ФОРМА РЕПРЕЗЕНТАЦИИ" ЧАСТИ ОТ ЦЕЛОГО". *Theoretical & Applied Science*, (4), 582-585.
9. Хайдарова, Н. А. (2022). Поэтика лабиринта в художественном дискурсе русскоязычных писателей Узбекистана (на примере творчества В.Г.Яна). *Мир культуры: искусство, наука, образование: сборник научных статей/сост.*, 182.
10. Holbutaev, G. (2019). SOME QUESTIONS OF THE CONSIDERATION OF PHRASEOLOGICAL ELLIPSIS IN A SYNTACTIC ASPECT. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(1), 197-200.
11. Begibaeva, F. B. Q. (2022). THE ROLE OF WORD FORMATION IN ENRICHING ENGLISH VOCABULARY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 20), 195-198.